

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI MATEMATIKAGA QIZIQTIRISHDA KREATIV YONDASHUV.

*Navoiy viloyati Navbahor tumani 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Safarova Zaynab Quvondiqovna
Xolboyeva Maxfuza Sharafovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari, matematika darslarida kreativlik g'oyalarni rivojlantirish asnosida darsning borish jarayoni haqida ma'lumotlar kelitirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, tashabbuskorlik, pedagog, ko'nikma, tajriba, samara.

Kreativlik (lot, ing. “create” - yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) -individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlilikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, b o'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi pedagoglarga ham kreativlik sifatleri o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'liko'rsatilgan:

Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;

Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;

Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;

Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

Quyida mazkur yo'llarning mohiyati xususida so'z yuritiladi.

1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, b o'lajak pedagoglar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida bo'lajak pedagoglarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, bo'lajak pedagoglardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda bo'lajak pedagoglarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatleri shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l) lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M"bog'liqlikni toping", "yarating", "bashorat qiling", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog bo'lajak pedagoglardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab berish"ni talab qilish o'rniga, "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikning barcha turlarini keltirish"ni so'rashi lozim. Natijada bo'lajak pedagoglar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagoglar birinchi yo'lni qo'llash - bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh o'qituvchilarning "Kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo'l: amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat

qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, Bo'lajak pedagoglarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Patti Drapeau o'z asarida bir qator bo'lajak pedagoglarda interfaollik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'l va metodlarni keltirib o'tadi. Xususan:

Veb-saytlar bilan ishlash vizuallashtirish; barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish; muhim g'oyalarni turli vaziyatlarda va o'rinli qo'llash (g'oyani boshqa sharoitga ko'chirish - transformatsiya); ramziylashtirish kabi yo'llar;

“Aqliy hujum”;

“Keys-stadi” kabi metodlar.

3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo'l bo'lajak pedagoglarni muammoni echish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “Yurak va qon aylanishi tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, bo'lajak pedagoglar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

4-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog bo'lajak pedagoglarga “Odamning qon aylanish tizimi” mavzusida Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

Bo'lajak pedagoglar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak pedagoglarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsan Siz nima deb o'ylaysiz: Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo'llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o'rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: “Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko'p yo'nalishlarni bosib o'tamiz. Bu fikr quyida biliriladigan ko'rsatmalarga ham taalluqlidir. O'qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo'llardan foydalanishi mumkin. O'qituvchi

креатив fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi fe'lllarni (1-yo'l) qo'llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yo'l) ustida ish olib borayotgan Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlash strategiyalari (2-yo'l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yo'l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Kreativ fikrlash jarayonini mohiyatini yorituvchi xarita o'qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo'ladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi".

Ko'p holatlarda o'qituvchilar hamda bo'lajak pedagoglarning o'zlari ham shunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat sifatida namoyon bo'lishiga erishish mumkinmi? Bu o'rinda Patti Drapeau shunday fikrlarni ilgari suradi: "Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Kreativlik miyaning old (g'oyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining o'zaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin (kishining o'zini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida ro'y beradi. Ta'lim olish miyada kichik burmalarining paydo bo'lishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayon kuchayadi. Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg'u, emotsiya va ma'no boy ma'lumotlar olishni ma'qul ko'radi. "Agarda ma'lumot hech qanay hissiyot va fikriy jarayonlardan holi bo'lsa, u miyada saqlanmaydi" (Willis, 2006, p. 44). Biroq, kreativ fikrlash miyada uning "ta'lim olish va o'rganish metodlariga zid bo'lgan" yangi usullarni qo'llash va noan'anaviy, original g'oyalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi (DiSalvo, 2011, 1-bob). Kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida Bo'lajak pedagoglar faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni, miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik - b o'lajak pedagoglarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun bo'lajak pedagoglar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va bo'lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baxolarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish xissi mavjud bo'lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, bo'lajak

pedagoglarning o'qishdagi muvafaqqiyat va o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo'llash orqali va sog'lom muhitdagina erishish mumkin".

Xorijliy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.

“Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi”.

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

O'qituvchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiq etish;

Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladiagan talablarni yangilash;
Ularning malakasini oshirish;

Eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. “create” - yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

Intellektual (aqliy);

Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);

Motivatsion (maqsadiy);

Emotsional (his hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

Kreativlik maqsad;

Ijodiy intilish;

Kreativ (ustanovka) qurish,

Kreativ yo'nalish;

Kreativ ifodali akt;

Kreativ o'z-o'zini boshqarish;

Kreativ faollik;

Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi".

Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;

yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;

bir qolipda fikrlamaslik;

o'ziga xoslik;

tashabbuskorlik;

noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilar darslarda bo'lajak pedagoglarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

“Kreativlik darslarida bo'lajak pedagoglar birgina “to'g'ri” javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli echimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo'lajak pedagoglarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo'rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992). Bo'lajak pedagoglarni yo'naltirish, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o'quvchilari yoki

yuqori kurslarning malakali bo'lajak pedagoglari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo'lib, yosh va tajribasiz bo'lajak pedagoglarni ruhlantirib, bu esa o'z o'rnida kreativlik ko'nikmasining shakllanishiga o'z ta'siri o'tkazadi (Amabile, 1998). O'qituvchilar bo'lajak pedagoglarni manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo'lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni echish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)".

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi: bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish; masalaning qo'yilishini tahlil qila olish; masalani hal qilish rejasini tuzish; masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash; masalani hal qilish usullarini tanlay olish; qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish; masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish; masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi: Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi); Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi); Tezkor-faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi); Refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi); Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

ijodiy fikrlashga odatlanadi;
ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi

3. Boshlangich matematika fani-oquv fani sifatida. Uning mazmuni va uzviyligi. Boshlangich sinfda matematika oqitishning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadi. Boshlangich sinfda matematika fani tuzilishining oziga xos xususiyatlari, uning mazmuni. Nomanfiy butun sonlar arifmetikasi, miqdorlar va ularni olchov birliklari, algebraik va geometrik materiallar, kasr haqida ma'lumot, arifmetik masalalar. Bu materiallarni maktab matematika fanidagi orni. Barcha materiallarni organishdagi uzviylik. Matematik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishda nazariy ma'lumotlarning orni. Konikma va malaka hosil qilishda kursning amaliy yonalishi. Kichik yoshdagi bolalarning boghadagi matematik tayyorgarligi. Boshlangich sinf matematikasi va matematika oqitishning kelgusi bosqichi orasidagi uzviylik. Oquvchilarning oquv yili oxiridagi bilim, konikma hamda malakalariga qoyilgan dastur talablari asosida har bir bosqich uchun moljallangan dastur tahlili. Boshlangich sinfda matematika oqitish metodi. Metod tushunchasi. Uning turlari va tasnifi. Oquv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bogliqlik. Oquvchilarning mustaqil ishlari - oqitish metodi sifatida. Oqitishni tashkil qilishda didaktik oyin metodidan foydalanish. Oqitish metodining oqitish maqsadi, mazmuni, sohalariga bogliqligi bolalarning yosh xususiyatlariga qarab aniqlanadi. Oqitish samaradorligini oshirishda qollaniladigan metodlar. oquvchilar faoliyat darajasini, ozlashtirish samarasini aniqlash metodlari. Dasturlashtirilgan ta'lim. Oquvchilarning faollik darajasiga kora qollaniladigan metodlar. Matematika darsida yozma ishlar va ularni tashkil qilish, oquvchilarning daftar yuritishini tekshirish metodlari.

Boshlangich sinfda matematika oqitishni tashkil qilish shakllari. Boshlangich sinfda matematika darsining tuzilishi va dars tizimi. Hozirgi zamon talabiga mos dars. Darsda oqitishning samaradorligini oshirish metodi qollanishi. Darsda didaktik oyin elementlaridan foydalanish. Oqituvchining darsga tayyorligi. Mavzu mazmuniga mos oqitish metodi, vositalarini tanlab oqitishning tashkiliy shakl yakka, guruhlariga bolib, ommaviylarini, oqitishning tarbiyaviy, ta'limiy hamda dars ishlanmasini tuzish. Muammoli dars va uni tashkil qilish usullari. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari: ozlashtirmaydigan oquvchilar bilan ishlash; oquvchilar uy vazifalari, uni tashkil qilishga koyilgan talablar; uning tekshirish metodlari; darsdan tashqari mashgulot turlari, oquvchining bilim saviyasini kengaytirish, fanga bolgan qiziqishini orttirishdagi orni. Iqtidorli oquvchilar bilan ishlash. Iqtidorli sinflar, litsey, gimnaziylarining boshlangich sinfida matematika darslarini tashkil qilish.

Boshlangich sinf matematikadarslarida didaktik tamoyillar: ilmiylik, korsatmalilik, onglilik, faollik, puxta ozlashtirish, sistemalilik, ketma-ketlik tamoyillari. Matematikadan dars jarayonini yoritish uchun qollaniladigan oquv vositalari va ularning vazifalari. Oquvchi va oqituvchi uchun oquv vositalar majmuasi, ularning xususiyatlari va foydalanish metodi, unga qoyilgan talablar. Matematikadan boshlangich sinflar uchun darsliklar, ularning mazmuni va tuzilishi. Turli qollanmalar

va ulardan foydalanish. Turli vositalardan foydalanish va qolda yasaladigan korgazmali korsatmalar. Mikrokalkulyatorlar. Ularning tuzilishi va foydalanish metodikasi. Oz komplektli maktablarda matematika oqitish xususiyatlari. Oz komplektli maktablarda matematika oqitishni tashkil qilishning oziga xos xususiyatlari. Matematika darsi. Uning dars jadvalidagi orni, boshqa darslar bilan aloqasi. Oquvchilarning mustaqil ishlari va ularni tashkil qilish xususiyatlari. Mustaqil ishni tashkil qilish uchun dars ishlanmasi va mashqlar toplamini tuzish.

Boshlangich sinflarda nomanfiy butun sonlarni nomerlashga orgatish metodikasi. Oquvchilarni maktabgacha bolgan davrda matematik tayyorgarligi darajasini aniqlash va ularni tartibga solish. Nomerlashga orgatishga tayyorgarlik. Son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari. O'qli sanoq sistemasi xususiyatlari va uning nomerlashga asos qilib olinishi. Kotsentrlar boyicha nomerlashga orgatish metodi. Darsni tashkil qilish, korgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalanish. Nomerlashga orgatishda matematik diktantning roli.

Asosiy miqdorlar va ularni olchov birliklarini orgatish metodikasi. Boshlangich sinflarda organiladigan asosiy miqdorlar: uzunlik, massa, narx, baho, masofa, vaqt, tezlik ... har bir miqdorni olchash, olchov birliklarining turlari va orasidagi bogliqliklar, amallar bajarishga orgatish metodikasi. Proportsional boglangan miqdorlarni orgatish (masalalar echish namunasida: masalan narx, baho, miqdor soni va boshqalar). Bularni shakllantirishda qollaniladigan vositalar, oyin mashgulotlari tayyorlash.

Nomanfiy sonlar ustida arifmetik amallarni orgatish metodikasi. Arifmetik amallarni orgatishning umumiy masalalari. Qoshish va ayirish, kopaytrish va bolish amali ma'nosini ochib berish va uni bosqichlab kotsentrlarda bajarilishini orgatish. Amal xossalari, komponentlari ular orasidagi boglanish bilan tanishtirish. Arifmetik amal bajarilishi togriligini tekshirish usullari. Hisoblash malakalarini hosil qilish. Qoshish va kopaytirish jadvallari ularga mos ayirish va bolish hollarini orgatish. Ogzaki hisob usullarni orgatish. Yozma hisoblash algoritmini orgatish. Hisoblash natijasini mikrokalkulyatorlar yordamida tekshirish. Hisoblash malakalarini tekshirish uchun yozma ishlar toplamini tuzish. Hisoblashda oquvchilar yol qoyishi mumkin bolgan xatolarni aniqlash va uni bartaraf qilish yollarini izlash. Ogzaki va yozma hisoblashga doir didaktik oyinlar toplamini tuzish, oyin mashgulotlarini tashkil qilish.

Algebraik materialarni orgatish metodikasi. Son va ifoda tushunchasi. Ifoda va sonli ifoda. Ozgaruvchi qatnashgan ifoda. Ifoda va munosabat belgilari. Tenglik, tengsizlik. Sonli tenglik va tengsizlik uni yechishga orgatish usullari metodikasi. Tenglama va uni yechishga orgatish usullari. Turli boglanishlar va ularning berilish metodlari.

Geometrik materialarni organish metodikasi. Figura (nuqta, kesma, kopburchak) tushunchasi haqida tasavvurni shakllantirish va ularni chizish, ayrim xossalari bilan tanishtirish metodikasi. Sodda geometrik yasash ishlari bilan tanishtirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish. Figuralarni farqlay olish, qismlarga bolish, qismlardan

figuralar hosil qilishga, kopburchaklar perimetri hamda yuzasini hisoblashga, perimetr va yuza olchov birliklari va ular orasidagi boglanishga doir masalalar yechish.

Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Butunning ulushi. Butunning ulushini topish. Ulushga kora butunni topish. Kasr tushunchasining ma'nosi, uning elementlari. Maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslashning amaliy yonalishi. Maxrajilari bir xil bolgan kasrlarni qoshish va ayirishning ma'nosi. Sonning kasr qismi va kasrga kora sonni topishga doir masalalar echish.

Arifmetik masalalar yechishga orgatish metodikasi. Masala va uning elementlari. Masalaning matematik tushunchalarning ma'nosini ochib berishdagi orni. Masala tuzish va uni yechish. Sodda va murakkab masalalar. Masala yechishga orgatish bosqichlari va uning mantiqiy asosi. Masalalar turlari va ular ustida ijodiy ishlash. Kontsentrlar boyicha masalalar yechish ustida ishlash. Masala yechishga orgatishning umumiy usullari ustida ishlash. Turli mavzuda masala yechayotganda oquvchilar yol qoyadigan xatolar va ular ustida ishlash metodi. Muammoli masalalar turi va yechishga orgatish metodi. Tafakkurni, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, hayotiy mazmunga ega bolgan she'riy topishmoq tarzidagi masala ustida ishlash (tuzish va yechish). Masala ustida ijodiy ishlashga orgatish. Iqtisodiy masalalarga doir hisoblashga oid sodda masalalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyonet.uz
2. Matematika o'qitish metodikasi.
3. Jamiyat va innovatsiyalar.